OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

QURBONOVA NIGORA NE’MATOVNA

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI TA’LIM SIFATI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 378.091:005.6(575.1)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Qurbonova Nigora Ne’matovna
Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirish.....3

Курбонова Нигора Неъматовна
Совершенствование управления качеством образования посредством кредитно-модульной системы в высших образовательных учреждениях...19

Qurbonova Nigora Ne’matovna
Improving education quality management in higher education institutions through the credit-module system.....39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati /
Список опубликованных работ /
List of published works.....43

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

QURBONOVA NIGORA NE’MATOVNA

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI TA’LIM SIFATI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8490 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.bimm.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yuldashev Maksudjan Abdullayevich**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Riskulova Kamola Djummayevna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Ibraymov Askar Yesbosinovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “20” noyabr soat 14.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20; faks: (99871) 202-01-21, e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095,Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “10” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “10” 11 dagi 22 raqamli reestr bayonnomasi).

U.Sh. Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta’lim sifatini boshqarish tizimlari o‘quv jarayonini kredit birliklari va modullar asosida tashkil etish bilan bevosita bog‘lanib bormoqda. Yevropa oliy ta’lim maydoniga birlashgan davlatlarda kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (ECTS) hamda sifat kafolatining Yevropa standartlari va tavsiyalari (ESG) ta’lim natijalarini o‘lchash, tan olish va qiyoslashning yagona asosiga aylandi. Ta’lim tashkilotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan ISO 21001:2018 xalqaro standartining amaliyotga kiritilishi esa sifat menejmentini alohida nazorat tadbirlari majmuasidan jarayonga yo‘naltirilgan yaxlit boshqaruv modeliga aylantirdi. Natijada oliy ta’lim muassasasi boshqaruvining diqqat markazi “o‘qitish jarayonini nazorat qilish”dan “ta’lim natijasini kafolatlash”ga ko‘chmoqda va bu holat ta’lim menejmentining metodologik apparatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar kredit-modul tizimining o‘zi avtomatik tarzda ta’lim sifatini oshirmasligini ko‘rsatmoqda. O‘quv materialini modullarga ajratish fanlararo uzviylikning susayishiga olib kelishi, kredit birligining rasmiy hisobi esa talabaning haqiqiy mehnat sarfi va o‘zlashtirish darajasidan uzilib qolishi mumkin. Buning oqibatida ta’lim muassasasida bir vaqtning o‘zida ikkita — kreditlarni hisobga oluvchi ma’muriy va bilim sifatini baholovchi pedagogik — boshqaruv konturi shakllanadi. Mazkur ikki konturni yagona tizimga birlashtirish, ya’ni kredit-modul tizimining tashkiliy imkoniyatlarini ta’lim sifati boshqaruvining pedagogik mezonlari bilan funksional bog‘lash bugungi ta’lim menejmentining yechim kutayotgan masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda zamonaviy bilimlarga ega va ma’naviy dunyoqarashi keng, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning yangi sifat bosqichiga erishish, oliy ta’limning xalqarolashuvi va integratsiyasini jadallashtirish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga muhim ustuvorlik qaratilmoqda. “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish”[1] strategik yo‘nalish sifatida belgilangan. Ayni paytda kredit-modul tizimiga o‘tish amaliyoti bir qator qarama-qarshiliklarni yuzaga chiqarmoqda: ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortishi bilan uni boshqarishning yagona pedagogik mezonlari to‘liq ishlab chiqilmaganligi, kredit birliklarining rasmiy hisobi bilan ta’lim natijalarini kompetensiyaviy o‘lchovlarga o‘tkazish mexanizmining yetarli asoslanmaganligi, baholashning ko‘pkomponentliligi bilan uning obyektivligini ta’minlovchi parametrik vositalarning yetishmasligi hamda qayta aloqa tezkorligiga bo‘lgan ehtiyoj bilan mavjud monitoring tizimlarining inertligi o‘rtasida. Bu esa, kredit-modul tizimi sharoitida ta’lim jarayonini boshqarishning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy nuqtai nazardan asoslash, ta’lim sifatini boshqarishning tarkibiy-funksional modelini takomillashtirish, fan kontenti va kredit birliklarini o‘zaro funksional bog‘lash hamda o‘zlashtirish va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

faollik indikatorlarini muvofiqlashtirish asosida boshqaruv samaradorligini dalillashni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-275-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorlari va mavzuga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda ta’lim sifati boshqaruvining nazariy va amaliy masalalari oliy ta’limda boshqaruv samaradorligini oshirish, sifat menejmenti tizimlarini milliy ta’lim amaliyotiga moslashtirish, o‘quv jarayonini raqamlashtirish, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish va interaktiv metodlarni qo‘llash nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Xususan, B.Abduvohidov, M.Yuldashev, A.Usmonov, Q.Rasulov, U.Maxkamov, J.Jalolov, Z.Ismoilov, S.G‘aniyev, E.G‘afforova, A.Bekmurodovlarning ilmiy ishlarida mazkur masalalar har tomonlama yoritib berilgan. S.R.Tashevaning ishida qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida ta’lim sifatini boshqarish, X.U.Umarovaning tadqiqotida oliy ta’lim tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv tizimini rivojlantirishning metodologik jarayonlari, R.Sh.Shamuratovning ishida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish, A.A.Abdurasulovning tadqiqotida korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari, M.M.Hamraevning ishida oliy ta’limda nazariya va amaliyot integratsiyasi texnologiyasi, T.K.Komilovning tadqiqotida esa ta’lim sifatini oshirishda maqsadli moliyalashtirish mexanizmlari yoritilgan. L.R.Zaripovning doktorlik dissertatsiyasida esa kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan M.Potashnik, G.Bordovskiy, L.Redko, V.Zaxarov, V.Bespyatix, D.Polozov, N.Sofronova va boshqalarning tadqiqotlarida ta’lim muassasasi ichida sifatni boshqarish tizimini loyihalash, o‘qituvchi faoliyati sifatini baholash, ta’lim jarayonini axborot-texnologik ta’minlash hamda uzluksiz ta’lim sharoitida sifatni bosqichli nazorat qilish masalalari o‘rganilgan.

Xorijlik olimlardan U.Shuxart, E.Deming va A.Glichevning tadqiqotlarida ta’lim sifatini boshqarishning umumnazariy asoslari — sifatni statistik nazorat qilish,

jarayonni uzluksiz takomillashtirish va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslash tamoyillari ishlab chiqilgan. L.Harvi, D.Grin va P.Drukerning ishlarida esa “ta’lim sifati” tushunchasining ko‘p o‘lchovli talqini hamda uni maqsad va natija muvofiqligi sifatida baholash yondashuvlari yoritilgan.

Shunga qaramay, sanab o‘tilgan tadqiqotlarning hech birida kredit-modul tizimining o‘zi ta’lim sifati boshqaruvining vositasi sifatida tadqiq etilmagan: ularda kredit-modul tizimining tashkiliy-texnologik imkoniyatlari, asosan, o‘quv jarayonini rejalashtirish va kredit birliklarini hisobga olish nuqtayi nazaridan yoritilgan. Ta’lim sifati boshqaruvining pedagogik mezonlarini modul kontenti va kredit birliklari bilan funksional bog‘lash, baholash obyektivligini ta’minlovchi motivatsion-hissiy parametrlarni boshqaruv modeliga kiritish hamda qayta aloqa tezkorligini sifat menejmenti indikatorlari orqali optimallashtirish masalalari maxsus tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Aynan mazkur holat dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda 598092-EPP-1-2018-1-son “Markaziy Osiyoda oliy ta’lim tizimini yangi texnologiyalar orqali rivojlantirish” (2018–2023-yillar) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi sharoitida ta’lim jarayonini boshqarishning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

kredit-modul tizimida ta’lim sifatini boshqarishning tarkibiy-funksional modelini takomillashtirish;

kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv jarayonini boshqarishni fan kontenti va kredit birliklarining funksional bog‘liqligi asosida takomillashtirish;

talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash va dalillash.

Tadqiqot obyekti oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayonini boshqarish, jumladan, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish hamda interaktiv va mustaqil ta’lim texnologiyalarini qo‘llash jarayoni hisoblanadi. Tadqiqotda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Jizzax politexnika instituti va Farg‘ona politexnika institutining 375 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini kredit-modul tizimini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni, ilmiy manbalarni, o‘quv-me’yoriy hujjatlarni, o‘quv reja va dasturlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, test, o‘z-o‘zini baholash so‘rovi, pedagogik tajriba-sinov, modellashtirish, umumlashtirish hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi sharoitida ta’lim jarayonini boshqarish tizimining tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishni va ta’lim sifati maqsadlariga ustuvorlik beruvchi boshqaruv qarorlarini tizimlashtirishni ta’minlovchi fanlarni mantiqiy uzviylikda guruhlash va o‘quv jarayonini maqsadli modullashtirishga ustuvorlik berish orqali aniqlangan;

kredit-modul tizimida ta’lim sifatini boshqarishning tarkibiy-funksional modeli ta’lim natijalarini baholash obyektivligini ta’minlashga bo‘lgan funksional ta’sirini hamda o‘quv jarayonini tashkil etishning gibrid shakllarini “motivatsion-hissiy” mezonlar bilan parametrik muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish o‘quv natijalarini kompetensiyaviy o‘lchovlarga o‘tkazish aniqligini hamda didaktik jarayonlarni transformatsiyalashni ta’minlovchi «sifat triadasi» (rejalashtirish, nazorat, transformatsiya) tamoyili asosida fan kontenti va kredit birliklarini o‘zaro funksional bog‘lash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligi sifat menejmentining qayta aloqa tezkorligini optimallashtirishni ta’minlovchi «3Q» (sifat, miqdor, tezkorlik) yondashuvi asosida o‘zlashtirish va faollik indikatorlarini muvofiqlashtirish orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kredit-modul tizimi sharoitida ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ular sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, umummilliy kompetensiyalarni shakllantirish va kasbiy mahoratni oshirish bo‘yicha mashg‘ulotlar mazmuniga singdirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv xodimlarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari ilg‘or va zamonaviy usullarni qo‘llash, ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantirish hamda ta’lim sifatini uzluksiz baholab borish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning ta’lim sifati boshqaruviga tayyorgarligini aniqlashning mezon (motivatsion, hissiy, informatsion, jarayon-faollik) va daraja (yuqori, o‘rta, past) ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, tajriba-sinov jarayonida sinovdan o‘tkazilgan;

oliy ta’lim muassasalarining kredit-modul tizimi asosidagi bakalavriat o‘quv dasturiga muvofiq “Xorijiy til (Language skills for economists)” fanidan o‘quv qo‘llanma tayyorlangan va o‘quv jarayoniga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo‘llangan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning mazmuni, asosiy tushunchalari, mezon va ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan, mazkur muammoga oid nazariy yondashuvlar «sifat triadasi» va «3Q» yondashuvlari bilan boyitilgan, ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning usul va vositalari ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirish modelining samarali ishlashini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib, tajriba-sinovdan o‘tkazilgan; bakalavriat yo‘nalishida o‘qitiladigan “Xorijiy til (Language skills for economists)” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmada ta’lim sifati boshqaruvini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda dasturiy-metodik mahsulotlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirish metodikasiga doir tadqiqot natijalari asosida:

oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi sharoitida ta’lim jarayonini boshqarish tizimining tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishni va ta’lim sifati maqsadlariga ustuvorlik beruvchi boshqaruv qarorlarini tizimlashtirishni ta’minlovchi fanlarni mantiqiy uzviylikda guruhlash va o‘quv jarayonini maqsadli modullashtirishga ustuvorlik berish orqali aniqlashga oid ma’lumotlar Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 28-avgustdagi 272-son buyrug‘i asosida berilgan nashr ruxsatnomasiga muvofiq “60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Xorijiy til (Language skills for economists)” fanidan o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 4/17-4/4-20305-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifati oshirilgan hamda ta’lim sifati maqsadlariga ustuvorlik beruvchi boshqaruv qarorlarini tizimlashtirishga erishilgan;

kredit-modul tizimida ta’lim sifatini boshqarishning tarkibiy-funksional modeli ta’lim natijalarini baholash obyektivligini ta’minlashga bo‘lgan funksional ta’sirini hamda o‘quv jarayonini tashkil etishning gibrid shakllarini “motivatsion-hissiy” mezonlar bilan parametrik muvofiqlashtirish orqali takomillashtirishga oid ma’lumotlar “Xorijiy til (Language skills for economists)” fanidan o‘quv qo‘llanmada qo‘llanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 4/17-4/4-20305-son ma’lumotnomasi). Natijada ta’lim natijalarini baholashning obyektivligi ta’minlangan hamda mazkur modelning amaliy samaradorligi tasdiqlangan;

kredit-modul tizimida talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish o‘quv natijalarini kompetensiyaviy o‘lchovlarga o‘tkazish aniqligini hamda didaktik jarayonlarni transformatsiyalashni ta’minlovchi «sifat triadasi» (rejalashtirish, nazorat, transformatsiya) tamoyili asosida fan kontenti va kredit birliklarini o‘zaro funksional bog‘lash asosida takomillashtirishga oid ma’lumotlar yuqorida qayd etilgan o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 4/17-4/4-20305-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quv natijalarini kompetensiyaviy o‘lchovlarda aniq baholash va didaktik jarayonlarni transformatsiyalash imkoniyati kengaytirilgan;

talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligi sifat menejmentining qayta aloqa tezkorligini optimallashtirishni ta’minlovchi «3Q» (sifat, miqdor, tezkorlik) yondashuvi asosida o‘zlashtirish va faollik indikatorlarini muvofiqlashtirish orqali dalillashga oid ma’lumotlar 598092-EPP-1-2018-1-son “Markaziy Osiyoda oliy

ta’lim tizimini yangi texnologiyalar orqali rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyiha mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 4/17-4/4-20305-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligi oshirilgan va ta’lim jarayonidagi qayta aloqa tezkorligi optimallashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 tasi o‘quv qo‘llanma bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi va aprobatsiyasi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari»** deb nomlanadi. Unda ta’limni boshqarishni takomillashtirish muammosiga pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan, ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning asosiy tendensiyalari aniqlangan hamda kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Tahlil ko‘rsatdiki, ta’lim sifati boshqaruvining tushunchaviy-kategoriyaviy apparati uchta fan sohasi — pedagogika, menejment nazariyasi va sifat kvalimetriyasi tutashgan maydonda shakllangan bo‘lib, uning tayanch tushunchalari har bir sohada o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Shu sababli tadqiqotda «ta’lim sifati» maqsad va natija muvofiqligi sifatida, «sifat boshqaruvi» esa ushbu muvofiqlikni ta’minlashga qaratilgan tsiklik faoliyat sifatida talqin etildi.

Kredit-modul tizimiga o‘tish ta’lim sifati boshqaruvida bir necha tub o‘zgarishni keltirib chiqaradi. Boshqaruv obyekti fandan modulga tushadi; boshqaruv tsikli semestrdan modul muddatiga qisqaradi; natijani o‘lchash birligi bahodan ta’lim natijasiga o‘tadi. Ushbu uch o‘zgarish birgalikda boshqaruv qarorini qabul qilish darajasini ham quyiga siljitadi.

Bobda kredit-modul tizimi ochadigan oltita tashkiliy-pedagogik imkoniyat aniqlangan: ta’lim mazmunini kompetensiya mantig‘ida qayta tuzish; fanlararo uzviylikni loyihalash bosqichida ta’minlash; talabaning o‘quv yukini oldindan me’yorlashtirish; boshqaruv qarorini modul darajasida qabul qilish; tuzatuvchi ta’sirni o‘quv yili ichida ko‘rsatish; talabani boshqaruv subyektiga aylantirish. Ushbu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun ikkita mexanizm ishlab chiqildi — fanlarni mantiqiy uzviylikda guruhlash va o‘quv jarayonini maqsadli modullashtirish.

Fanlarni guruhlash to‘rtta mezon bo‘yicha amalga oshiriladi: mazmuniy uzviylik, kompetensiyaviy uzviylik, mantiqiy ketma-ketlik va mehnat sarfi muvozanati. Maqsadli modullashtirish esa an’anaviy mazmuniy modullashtirishdan farq qiladi: modul chegarasi mavzular hajmi bo‘yicha emas, tugallangan ta’lim natijasi bo‘yicha o‘tkaziladi, ya’ni modul boshqaruvning tugallangan obyektiga aylanadi. Shu tariqa birinchi ilmiy yangilikning nazariy asosi shakllantirildi.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirish texnologiyasi»** deb nomlanib, unda monitoring va baholash mexanizmlari, ta’lim sifati boshqaruvining tarkibiy-funksional modeli hamda uslubiy ta’minotning shart-sharoitlari ishlab chiqilgan.

Ta’lim sifatini baholashning tashqi va ichki konturlari ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan joriy etilgan akkreditatsiya tartibida ichki (o‘zini o‘zi) baholash birinchi marta rasmiy ta’rifga ega bo‘ldi va u mazmunan monitoring tsiklining o‘zini ifodalaydi. Tashqi kontur esa davriyligi (kompleks akkreditatsiya besh yilda bir marta) va predmeti (asosan shart-sharoitlar) bo‘yicha cheklangan bo‘lib, joriy o‘quv jarayonini boshqarish uchun axborot bermaydi.

Shu asosda ichki monitoringning uch darajali tuzilmasi (modul — blok — dastur) ishlab chiqildi va uch guruhga ajratilgan oltita indikatordan iborat tizim taklif etildi: o‘zlashtirish, faollik va tezkorlik indikatorlari. Tizimning asosiy xususiyati — har bir indikator uchun qaror chegarasi va axborot manbai oldindan belgilanganligi. Tezkorlik guruhining kiritilishi an’anaviy monitoring tizimlaridan asosiy farqni tashkil etadi: bunda boshqaruv jarayonining o‘zi o‘lchov obyektiga aylanadi.

Bobning markaziy natijasi — ta’lim sifati boshqaruvining tarkibiy-funksional modeli. Model asosi sifatida H.Mintzbergning tashkiliy konfiguratsiya nazariyasi va T.Burns hamda G.Stalkerning mexanistik–organik tashkilot yondashuvi qabul qilindi. Ushbu nazariyalarda tashkiliy shakl tanlovi asoslanadi, ammo qaysi sharoitda qaysi shakl maqsadga muvofiq ekanini belgilaydigan o‘lchanadigan mezon berilmaydi. Model shu bo‘shliqni to‘ldiradi: unga parametrik-muvofiqlashtiruvchi blok kiritilgan.

Model maqsad va natija bilan chegaralangan beshta o‘zaro bog‘liq blokdan iborat. Motivatsion blok boshqaruvning maqsadi va qiymat asosini belgilaydi. Mazmuniy blok H.Mintzbergning tashkiliy tuzilmasi — strategik cho‘qqi, o‘rta chiziq va operatsion yadro asosida ta’lim mazmunini modullar va kredit birliklariga ajratadi. Muallif tomonidan kiritilgan parametrik-muvofiqlashtiruvchi blok uch elementdan tashkil topgan: «motivatsion-hissiy» mezonlar, gibrid shakl parametrlari va muvofiqlashtirish matritsasi. Matritsa talabalarning yuqori, o‘rta yoki past darajasiga mos ravishda gibrid shaklning C, B yoki A variantini besh bosqichli algoritm asosida belgilaydi. Jarayonli blok vaziyatli yondashuv asosida tanlangan shaklda — mexanik (byurokratik), organik (adaptiv) yoki kombinatsiyalangan (gibrid) shaklda o‘quv jarayonini tashkil etadi. Natijaviy-baholash bloki natijani motivatsion va hissiy (parametrik) hamda informatsion va jarayon-faollik (natijaviy) mezonlar bo‘yicha yuqori, o‘rta va past darajalarda o‘lchaydi (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning tarkibiy-funksional modeli

Bloklar o‘rtasida to‘g‘ri va teskari bog‘lanish mavjud: natijaviy-baholash blokida olingan ma’lumot qayta aloqa halqasi orqali parametrik-muvofiqlashtiruvchi blokka qaytadi va keyingi tsiklda gibrid shakl parametrlarini tuzatish uchun ishlatiladi. Shu tariqa model yopiq boshqaruv tsiklini hosil qiladi. Modelning yakuniy natijasi — kredit-modul tizimida ta’lim natijalarini baholash obyektivligi ta’minlangan hamda ta’lim sifati boshqaruvi kompetensiyasi takomillashgan mutaxassis.

Yangi blokning zarurati quyidagicha izohlanadi. Mazmuniy blok modulni va uning kredit hajmini belgilaydi, natijaviy blok esa natijani o‘lchaydi. Ular o‘rtasida bitta bo‘g‘in yetishmaydi: bir xil modul turli talabalar tomonidan turlicha o‘zlashtiriladi va bu farq ularning bilim darajasi bilan emas, o‘quv jarayonining tashkiliy shakliga moslashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi. Parametrik blok shu bo‘g‘inni to‘ldiradi.

«Motivatsion-hissiy» mezon oltita ko‘rsatkich orqali o‘lchanadi va 6 dan 18 ballgacha bo‘lgan oraliqda uchta darajaga taqsimlanadi. Kirish o‘lchovi modul boshlanishidan oldin bir marta o‘tkaziladi va uning natijasi baho qo‘yish uchun ishlatilmaydi. Mezon qiymatiga muvofiq gibrid shaklning to‘rtta parametri belgilanadi (1-jadval).

1-jadval

Gibrid shakl variantlari va ularning «motivatsion-hissiy» daraja bilan muvofiqlashtirilishi

PARAMETR	KONTAKT-USTUVOR (A)	MUVOZANATLI (B)	MASOFAVIY-USTUVOR (C)	PARAMETR NIMANI BOSHQARADI
Masofaviy komponent ulushi	20–30 %	40–60 %	70–80 %	Bevosita pedagogik ta’sir hajmi
Sinxronlik darajasi	Yuqori	O‘rta	Past	O‘qituvchi bilan bir vaqtda ishlash imkoniyati
Qayta aloqa davriyligi	Har hafta	Ikki haftada bir	Oraliq va yakuniy nuqtalarda	Xatoni tuzatishgacha o‘tadigan vaqt
Boshqariladigan mustaqil ish ulushi	Yuqori	O‘rta	Past	O‘z-o‘zini tashkil etish talabi
Mos keladigan daraja	Past (6–9 ball)	O‘rta (10–13)	Yuqori (14–18)	Shaklni tanlash uchun kirish parametri

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Muvofiqlashtirishning asosiy qoidasi quyidagicha: talabaning «motivatsion-hissiy» darajasi qanchalik past bo‘lsa, tashqi tuzilma shunchalik yuqori bo‘lishi kerak. Parametrik muvofiqlashtirishni individuallashtirish va tabaqalashtirishdan farqlash zarur: mazmun va ta’lim natijasi butun guruh uchun bir xil qoladi, faqat tashkiliy parametrlar o‘zgaradi — shu sababli u kafedra yuklamasi doirasida amalga oshiriladi. Shu tariqa ikkinchi ilmiy yangilik asoslandi: motivatsion-hissiy holat baholash xatosining nazoratsiz manbasidan boshqaruvning kirish parametriga aylantiriladi.

Uchinchi paragrafda uslubiy ta’minot masalasi ko‘rib chiqildi va «sifat triadasi» (rejalashtirish — nazorat — transformatsiya) tamoyili ishlab chiqildi. Tamoyilning nomlanishi J.Yuranning sifat triadasiga borib taqaladi, ammo uchinchi komponent

almashtirilgan. Yuranning «yaxshilash» komponenti sanoat sharoitida shakllangan va jarayonning saqlanishini nazarda tutadi; kredit-modul tizimida esa modul qisqa muddatli bo‘lgani uchun bosqichma-bosqich yaxshilash uchun zarur tsikllar soni to‘planmaydi, chetlanish esa ko‘pincha jarayonning tuzilishidan kelib chiqadi. Shu sababli uchinchi komponent sifatida transformatsiya — monitoring natijalari asosida ta’lim jarayonining tuzilmaviy parametrlarini maqsadli qayta loyihalash qabul qilindi.

Fan kontenti va kredit birliklarini funksional bog‘lash tamoyili quyidagicha shakllantirildi: bog‘lanishning boshlang‘ich nuqtasi — ta’lim natijasi, oxirgi nuqtasi — kredit hajmi. Hisob-kitobda uchta komponent hisobga olinadi: kontakt mashg‘ulotlar; mustaqil ish va baholashga tayyorgarlik; baholash jarayonining o‘zi. Amaliy namuna 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ta’lim natijasidan kredit hajmiga o‘tish: hisob-kitob namunasi

Modul	Ta’lim natijasi	Kontakt (soat)	Mustaqil ish va baholash (soat)	Kontakt ulushi	Jami / kredit
Kasbiy leksika asoslari	Iqtisodiy atamalarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash	26	34	43 %	60 / 2
Kasbiy matn bilan ishlash	Matndan axborotni ajratish va umumlashtirish	12	18	40 %	30 / 1
Kasbiy muloqot	Kasbiy vaziyatda og‘zaki muloqotni amalga oshirish	29	31	48 %	60 / 2
Kasbiy hujjat tayyorlash	Kasbiy yozma matn yaratish	12	18	40 %	30 / 1
Jami	—	79	101	44 %	180 / 6

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan (1 kredit = 30 akademik soat; kontakt ulushi bakalavriat uchun belgilangan 40–50 foiz oralig‘ida).

Jadvaldan ko‘rinadiki, fanga ajratilgan olti kredit modullar o‘rtasida teng taqsimlanmagan: takroriy mashq va bevosita o‘zaro ta’sirni talab qiluvchi modullar ikki kreditdan, asosan mustaqil bajariladigan modullar esa bir kreditdan oladi. Shu tariqa uchinchi ilmiy yangilik asoslandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish orqali ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirish samaradorligi» deb nomlanib, unda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi va olingan natijalarning statistik tahlili keltirilgan.


Tajriba-sinov ishlari 2021–2022, 2022–2023 va 2023–2024 o‘quv yillarida uchta oliy ta’lim muassasasida — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Jizzax politexnika instituti va Farg‘ona politexnika institutida o‘tkazildi. «60310500 – Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)» ta’lim yo‘nalishining 375 nafar talabasi ishtirok etdi: tajriba guruhlarida 195, nazorat guruhlarida 180 nafar.

Talabalarning ta’lim sifati boshqaruviga tayyorgarligi to‘rtta mezon bo‘yicha baholandi. Motivatsion va hissiy mezonlar parametrik mezonlar bo‘lib, ular o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin o‘lchanadi; informatsion va jarayon-faollik mezonlari esa natijaviy mezonlar hisoblanadi. Har bir mezon oltita ko‘rsatkich orqali, har bir ko‘rsatkich uch ballik shkalada o‘lchandi; ball yig‘indisiga ko‘ra talaba uchta

darajadan biriga kiritildi. Taqsimotni yagona miqdorga keltirish uchun daraja indeksi qo‘llanildi (1 dan 3 gacha).

Tajriba omili alohida metod emas, beshta pedagogik shart-sharoitdan iborat majmua sifatida belgilandi: fanlarni mantiqiy uzviylikda guruhlash va maqsadli modullashtirish; tashkiliy shaklni «motivatsion-hissiy» ko‘rsatkich asosida tanlash; fan kontenti va kredit birliklarini «sifat triadasi» asosida bog‘lash; mezonli baholashning ochiq rubrikasini qo‘llash; modul natijalarini monitoring qilish va chegara qiymatlarda tuzatish kiritish. Har bir shart-sharoit uchun uni tekshiradigan ko‘rsatkich oldindan belgilandi.

Aniqlovchi kesimda guruhlarning boshlang‘ich tengligi tasdiqlandi: daraja indekslari farqi barcha mezonlar bo‘yicha 0,006 dan oshmadi, ya’ni indeks shkalasi diapazonining 0,3 foizidan kam. Yakuniy kesimda tajriba guruhida past darajadagi talabalar ulushi 68,7–73,3 foizdan 20,5–21,5 foizgacha kamaydi, o‘rta darajaning ulushi esa qariyb uch barobar oshdi; nazorat guruhida past darajaning pasayishi 7,2–9,4 foiz punktni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Darajalar taqsimotining tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zgarishi

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Daraja indeksi tajriba guruhida 1,375 dan 1,975 gacha (o‘sish 0,600), nazorat guruhida esa 1,378 dan 1,478 gacha (o‘sish 0,100) ko‘tarildi. Tajriba guruhidagi o‘sish indeks shkalasi diapazonining 30 foiziga teng va nazorat guruhidagidan olti barobar katta. Mezonlar bo‘yicha o‘sish deyarli bir xil (0,58–0,63), ya’ni tajriba omili birorta mezonga tanlab ta’sir qilmagan (3-jadval).

3-jadval

Daraja indeksining dinamikasi va Styudent mezonining qiymatlari

Mezon	Tajriba: aniqlovchi	Tajriba: yakuniy	O‘sish	Nazorat: aniqlovchi	Nazorat: yakuniy	Styudent mezoni (df = 373)
Motivatsion	1,36	1,96	0,60	1,36	1,46	7,59
Hissiy	1,41	1,99	0,58	1,41	1,50	7,22
Informatsion	1,34	1,97	0,63	1,34	1,46	7,77
Jarayon-faollik	1,39	1,98	0,59	1,40	1,49	7,11

Mezon	Tajriba: aniqlovchi	Tajriba: yakuniy	O‘sish	Nazorat: aniqlovchi	Nazorat: yakuniy	Styudent mezoni (df = 373)
O‘rtacha	1,375	1,975	0,600	1,378	1,478	—

Manba: muallif hisob-kitoblari. df = 373 va p = 0,05 uchun kritik qiymat — 1,97; barcha empirik qiymatlar undan katta.

Farqning statistik ishonchliligi har bir muassasa bo‘yicha alohida ham tasdiqlandi: erkinlik darajalari mos ravishda 148, 113 va 108 bo‘lgan holda empirik qiymatlar 3,65 dan 5,09 gacha oraliqda bo‘lib, kritik qiymat 1,98 dan yuqori chiqdi. Muassasalar kesimidagi tahlil natijani bitta bazaga bog‘lash mumkin emasligini ko‘rsatdi: o‘sish uchala bazada 0,560 dan 0,619 gacha oraliqda bo‘lib, tarqalish indeks shkalasi diapazonining uch foizidan kam. Yakuniy daraja indeksining 95 foizli ishonch oraliqlari esa barcha mezonlar bo‘yicha kesishmaydi.


Erishilgan natijani to‘liqroq tavsiflash uchun «3Q» yondashuvi qo‘llanildi. Uning komponentlari quyidagicha aniqlandi: sifat — yakuniy daraja indeksi; miqdor — past darajadan chiqqan talabalar ulushi; tezkorlik — daraja indeksining bir o‘quv yiliga to‘g‘ri keladigan o‘sishi (4-jadval, 3-rasm).

4-jadval

Tajriba natijalarining «3Q» yondashuvi bo‘yicha bahosi

